

**FRAZEOLOGIK DERIVATSIYA JARAYONINI TAHLIL QILISHDA
KOMPONENTLAR KOMBINATORIKASI USULINING ROLI**

Nortoyeva Nodiraxon Muhammadaliyevna,
*Andijon davlat chet tillari instituti Fransuz tili nazariyasi
va amaliyoti kafedrasida o'qituvchisi*
nortoevanodira@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18230893>

Annotatsiya. mazkur maqolada frazeologik birliklarning yangi ma'no hosil qilish mexanizmini komponentlar kombinatorikasi yondashuvi yordamida tadqiq qilingan. Tadqiqot natijalari frazeomalarning ichki semantik tuzilmasida ierarxik qayta taqsimlanish va semantik assimetriya yuz berishini, shuningdek komponentlarning o'zaro integratsiyasi orqali yangi konnotativ qatlamlar hosil bo'lishini tasdiqlaydi. Olingan xulosalar frazeologik derivatsiyani korpus tahlili, psixolingvistik tajribalar va tarjima amaliyotida qo'llash uchun asos bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: frazeologiya, frazeoderivatsiya, komponentlar kombinatorikasi, semantika, ierarxiya, konnotatsiya, kognitiv motivatsiya.

Аннотация. В данной статье исследован механизм возникновения нового значения фразеологических единиц с помощью подхода комбинации компонентов. Результаты исследования подтверждают, что во внутренней семантической структуре фразеом имеет место иерархическая перераспределённость и семантическая асимметрия, а также что интеграция компонентов приводит к образованию новых коннотативных слоёв. Полученные выводы могут служить основой для применения при корпусном анализе фразеологической деривации, психолингвистических экспериментах и практике перевода.

Ключевые слова: фразеология, фразеологическая деривация, комбинация компонентов, семантика, иерархия, коннотация, когнитивная мотивация.

Abstract. This article examines the mechanism by which phraseological units acquire new meanings using the component combinatorics approach. The study's findings confirm that the internal semantic structure of phrasemes undergoes hierarchical redistribution and semantic asymmetry, and that integration of components yields new connotative layers. The conclusions obtained may serve as a basis for applications in corpus analysis of phraseological derivation, psycholinguistic experiments, and translation practice.

Keywords: phraseology, phraseological derivation, component combinatorics, semantics, hierarchy, connotation, cognitive motivation.

Kirish va dolzarbligi. Bilamizki, insonning til qobiliyatining shakllanishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, fikrlash jarayonini ta'minlaydigan kognitiv qobiliyat muhim o'rin tutadi. Undan tashqari odamning tashqi muhit bilan bog'lanishini ta'minlaydigan perseptiv qobiliyat, muloqot jarayonida xatti-harakatni boshqarib turuvchi kommunikativ qobiliyat hamda shaxsning jamiyatdagi o'rnini belgilovchi va ijtimoiy muhitdagi xulqini tartibga soluvchi ijtimoiy qobiliyat ham til kompetensiyasining shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi. Ushbu nazariyalar XXI asr linvistlari o'rtasida keng tarqaldi va bu frazeologizmlarning tadqiqotlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Kaliforniya universiteti olimi J. Searle o'zining nutq aktlari nazariyasida til birliklarining ma'nosi faqat tarkibiy mazmun bilan cheklanmasligini, balki ular kommunikativ vaziyat, maqsad

va ijtimoiy kontekstda real kuchga ega bo'lishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, frazeologik derivatlar ko'pincha bevosita grammatik shakl emas, balki ijtimoiy-pragmatik niyatning tashuvchisi sifatida faoliyat ko'rsatadi

Til kompetensiyasining shakllanishi ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ulardan asosiylari — kognitiv (fikrlash), perseptiv (tashqi muhit bilan aloqa), kommunikativ (muloqot xatti-harakatlarini boshqarish) va ijtimoiy qobiliyatlardir. Ushbu omillar frazeologik birliklar — frazeemalar — ning ma'no va kommunikativ funksiyalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. An'anaviy semantik yondashuvlardan farqli ravishda, frazeologik birliklarning ma'nosi tarkibiy (leksik-grammatik) komponentlardan tashqari kommunikativ vaziyat, ijtimoiy kontekst va nutq niyatlari bilan ham bog'liq ekanligi aytiladi; buni nutq aktlari nazariyasi orqali ham tasdiqlash mumkin [1, C.40]. Frazeologik birliklarning ichki semantik tuzilmasi — denotativ, baholash (konnotativ), motivatsion va uslubiy makrokomponentlardan iborat kompleksi — frazeoderivativ jarayonlarda yangicha ma'no hosil bo'lishini ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan, frazeologik derivatsiya mexanizmini aniqlash uchun komponentlar kombinatorikasi (frazeotvor kombinatorikasi) metodologiyasi muhim ilmiy vosita hisoblanadi [2]. Tadqiqot maqsadi: frazeologik derivatsiyaning semantik mexanizmini komponentlar kombinatorikasi yondashuvi yordamida tizimli izohlash va taqqoslovchi misollar orqali usulning samaradorligini ko'rsatish.

Metodlar va o'rganilish darajasi. Tadqiqot maqsadi: frazeologik derivatsiyaning semantik mexanizmini komponentlar kombinatorikasi yondashuvi yordamida tizimli izohlash va taqqoslovchi misollar orqali usulning samaradorligini ko'rsatish.

Tadqiqot nazariy-metodologik uslubga tayanadi: frazeologik birliklarni komponent tahlili, sintagmatik munosabatlarni o'rganish, komponentlar sintezi va semantik interpretatsiyani o'zaro uzviy bog'liq bosqichlarda amalga oshirishdan iborat. Asosiy metodologik baza — N. Alefirenko taklif etgan frazeema hosil qilish kombinatorikasi metodologiyasi; bu metod frazeologik komponentlarni elementar semalarga ajratish va ularning yangi semantik tizim hosil qilishdagi integratsiyasini aniqlashni nazarda tutadi [1, C.47]. Tadqiqot doirasi — nazariy va taqqoslovchi-analitik; misol tariqasida fransuz va o'zbek tilidagi frazeemalar (masalan, fr. *toucher le cœur* va o'zb. *ko'ngliga tegmoq*) [3,C.258]. Metodik jarayonning asosiy bosqichlari:

1. komponent tahlili — frazeemaning tarkibiy qismlarini elementar semalarga ajratish;
2. sintagmatik munosabatlarni aniqlash — semalarning o'zaro bog'lanish imkoniyatlari va kontekstga moslashuv mexanizmini o'rganish;
3. semalarning o'zaro ta'sir shakllarini tahlil qilish — frazeotvor o'zaro aloqalar va yangi yuzaga kelgan semantik qatlamlarni aniqlash;
4. ierarxik joylashuvni aniqlash — semalarning frazeema strukturidagi darajaviy o'rnini belgilash va genotip bilan taqqoslash;

5. funksional baholash — har bir semaning frazeomadagi roli;
6. umumiy sintez va semantik interpretatsiya — elementlar yig'indisidan yangi, integratsiyalashgan ma'no hosil bo'lishini tasvirlash.

Shuningdek, tadqiqot ichki til birliklari darajasidagi taqqoslash usulidan foydalandi, bu usul frazeologik derivatning genetik va semantik ierarxiyasini solishtirish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari. Frazeologik birliklarining hosil bo'lishida semalarning kombinatorik potentsiali hal qiluvchi rol o'ynaydi: semalarning leksik va grammatik yo'nalishdagi imkoniyatlari, ularning konnotativ moslashuvi va kontekstual integratsiyasi yangi semantik qatlamlar (emotiv, bahoviy, motivatsion)ni yuzaga keltiradi [4].

Alefirenko tomonidan taklif qilingan bosqichlar tadqiqot amaliyotida mazmunli va tartibli mexanizm sifatida tasdiqlandi: komponentlarni elementar semalarga ajratish tadqiqotning alohida bosqichi emas, balki sintez uchun zarur ilmiy tayyorgarlik ekanligi aniqlandi [5,C.123]. Frazeoderivativ jarayonlarda frazeemani tashkil etuvchi komponentlar orasida ierarxik qayta taqsimlanish yuz beradi: muayyan sema (masalan, emotsional markaz) asosiy signifikantga aylanadi va boshqa semalar unga nisbatan passiv yoki yordamchi rolga o'tadi. Bu frazeemaga semantik assimetriya keltirib chiqaradi va ma'no-shakl nomutanosibligini yuzaga chiqaradi.

Taqqoslovchi misollar:

Fransuzcha *toucher le cœur* frazemasi: *toucher* (tegmoq) + *cœur* (yurak) komponentlarining birlashuvi denotativ "jismoniy tegish"dan tashqarida emotsional yaqinlik va ta'sirchanlikni bildiruvchi konnotativ qatlam hosil qiladi; buni nutqdagi ijtimoiy-pragmatik niyat mustahkamlaydi [1, C.67]. O'zbekcha *ko'ngliga tegmoq* birikmasi ham tashqi shaklda "jismoniy tegish" semasini saqlasa-da, frazeologik kontekstda "ruhiy og'riq yoki dil ta'siri" kabi emotiv-konnotativ ma'noni bildiradi.

Frazeotvor kombinatorikasi metodi komponent tahlilining kamchiliklarini bartaraf etadi: u semalarning ajratilishini yakuniy natija emas, balki sintez uchun zarur poydevor sifatida ko'radi. Natijada frazeologik birlik mazmuni komponentlarning oddiy yig'indisi emas, balki ularning integratsiyalashgan, ierarxialashgan semantik kompleksi sifatida ko'rsatildi. Shuni aytish mumkinki, frazeologik derivatsiyaning semantik mexanizmi nafaqat lingvistik qonuniyatlarga balki madaniy-psixologik omillarga ham tayanadi; bunday holatlar frazeemalarning tiliy madaniy kontekstlararo tarjimasida muhim rol o'ynaydi [6]. Avvalo shuni aytish kerakki, frazeologik birliklarning shakllanish jarayonini tahlil qilishda komponentlarning semantik tuzilmasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon, 1986 yilda Кузнецов tomonidan o'rganilgan. Uning ta'kidlashicha, semantik elementlarning faqat tahlili bilan cheklanmaslik kerak, tahlil jarayoni ularning sintezini amalga oshirishni ham talab etadi. Tahlilda komponentlarning D – denotativ ma'no, K – konnotativ sema, P – potentsial semalari aniqlanib, ushbu ko'rsatkichlar bilan

belgilangan. «*Mettre son nez dans les affaires de quelqu'un*» (soʻzma soʻz: kimningdir ishlarini ichiga burnini qoʻymoq) frazeologik birikmasidan *mettre son nez* derivati hosil boʻlgan va oʻzbekcha «birovning ishiga aralashmoq» maʼnosini beradi. Bu oʻzbek tilidagi “*birovni ishiga burnini suqmoq*”, “*tumshugʻini tiqmoq*” frazeologik birikmasiga toʻliq mos keladi

Yuqoridagi misollardan koʻrinadiki, fransuz tilidagi «*mettre le nez*» hamda oʻzbek tilidagi «burnini suqmoq» frazeologik iboralar birovning ishiga aralashmoq, burnini tiqmoq frazemasining shakllanishiga sabab boʻlgan yaʼni birinchi birlikdagi P₁ semasi (“birovning hayotiga yoki suhbatiga aralashish”) bilan ikkinchi leksik birligining K₁ va K₂ semalari (“qiziquvchanlik”, “inson feʼl atvoriga xos xususiyatlar”) oʻzaro taʼsiri natijasida yuzaga keladi. Ushbu birikmalardagi burun komponenti ikki tilda bir hil, feʼl qismida oʻzbek tilida aynan tushadigan «suqmoq» feʼli ishlatilsa, fransuz tiliga «*mettre*» (qoʻymoq) feʼli bilan berilgan. *Mettre* feʼli koʻp maʼnoli, universal feʼllar tarkibiga kiradi, oldidagi komponentidan kelib chiqib tarjima qilinadi.

Frazemada feʼl va ot komponentlari oʻrtasida determinativ munosabatlar namoyon boʻladi: “kirib borish, ichki dunyoni bilishga urinish” va “his-tuygʻular, kechinmalar”. Aynan ushbu semantik munosabatlar frazemaning ichki shakli va metaforik mohiyatini belgilaydi. Shu jarayonda denotativ “kirib borish” semasi oʻz funksional faolligini yoʻqotadi va uning oʻrnini konnotativ semalar egallaydi. Frazemotvor birliklarning (masalan, *pénétrer* va *âme*) semantik tarkibini frazederivat (*pénétrer dans l'âme*) tarkibi bilan taqqoslash natijasida, semalarning ierarxik tuzilmasida nafaqat darajaviy oʻzgarish, balki sifat jihatidan yangilanish ham kuzatiladi: baʼzi semalar deaktualizatsiyaga uchraydi, boshqalari esa yangidan shakllanadi.

Xulosalar. Shunday qilib, frazeologik derivatsiya jarayonida leksik birliklarning semantik tizimi qayta tashkil qilinadi — bunda konnotativ semalar dominantlik kasb etib, denotativ semani chetga suradi va yangi maʼno qatlamining hosil boʻlishiga sabab boʻladi. Aynan shunday semantik tarkibning sifat jihatidan oʻzgarishi natijasida frazemaning umumlashtirilgan va yaxlit maʼnosida “birovning hayotiga nojoʻya tarzda aralashish, uning shaxsiy sirlarini bilishga urinmoq” kabi mazmun shakllanadi.

Frazeologik birliklarning yangi maʼno hosil qilish mexanizmini ochib berish uchun komponentlar kombinatorikasi (frazemotvor kombinatorikasi) usuli nazariy va amaliy jihatdan samarali ekanligi tasdiqlandi. Ushbu yondashuv:

- frazeemalarning ichki semantik strukturasi elementar semalarga ajratish va ularning sintetik integratsiyasini aniqlash orqali maʼnoning yangi darajalarini aniqlashga imkon beradi;
- komponentlar ierarxiasining qayta taqsimlanishi va semantik assimetriya hodisalarini tizimli ravishda izohlashga yordam beradi;

- frazeologik derivatsiyaning kognitiv, madaniy va pragmatik aspektlarini tushunishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Frazeologik hosilalarni tashkil etuvchi komponentlar o'zaro integratsiyalashgan holda yangi ma'nolarni hosil qiladi. Bu jarayonda denotativ semalar periferik rolga o'tib, konnotativ va pragmatik semalar frazeemning asosiy mazmunini belgilaydi. Komponentlar kombinatorikasi usuli frazeologik derivatsiya jarayonining semantik mexanizmini aniqlash, semalarning o'zaro ta'siri va ularning yangi semantik birlikka birlashishini o'rganishga imkon beradi. Frazeologik birikmalar (frazeem) hosil bo'lish jarayoni leksik va grammatik birliklarning sintezi, semantik va struktur jihatdan integratsiyasini o'z ichiga oladi. Frazeologik birlikning mazmuni uning komponentlari yig'indisidan iborat bo'lmay, ularning sintezlangan, uzviy bog'langan semantik kompleks sifatida namoyon bo'ladi. Natijada, frazeologik derivatsiya jarayonida semantik qayta tashkil etish, metaforik va kommunikativ qiymatning shakllanishi ilmiy jihatdan asosli ravishda ochib beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. АЛЕФИРЕНКО Н.Ф., ЗОЛОТЫХ Л.Г. ПРОБЛЕМЫ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОГО ЗНАЧЕНИЯ И СМЫСЛА (в аспекте межуровневого взаимодействия языковых единиц): Монография. – Астрахань: Астрах. гос. пед ин-т, 2000.
2. Rajabova, F., & Nortoyeva, N. (2024). FRANSUZ TILIDA FRAZEOLOGIK DERIVATLARNI HOSIL BO'LISH USULLARI. *Наука и инновация*, 2(33), 92-93.
3. RAHMATULLAYEV SH. O'ZBEK TILI FRAZEOLOGIK LUG'ATI. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2022
4. NORTOYEVA, N. (2024). FRANSUZ TILIDA BIRLAMCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING IFODALANISHI. «*ACTA nuuz*», 1(1.2. 1), 319-322.
5. КУЗНЕЦОВ А.М. 1986 ОТ КОМПОНЕНТНОГО АНАЛИЗА К КОМПОНЕНТНОМУ СИНТЕЗУ / Под ред. В.Н. Ярцева. - М.: Наука, 1986
6. MUHAMMADALIEVNA, N. N. (2023). COMMUNICATIVE-PRAGMATIC DIRECTION IN THE STUDY OF PHRASEOLOGICAL UNITS AND THEIR DERIVATIVES IN FRENCH AND UZBEK. *International journal of social science & interdisciplinary research* issn: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 12(01), 49-50.